

**NEMIS TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA A1 (BOSHLANG'ICH)**  
**DARAJADA O'RGATISHDA YOZIV KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH**

*Guliston Jo'rayeva Mardanova,*

*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Xorijiy tillarni o'rghanishni ommalashтирish  
boshqarmasi bosh mutaxassisi*

**Annotatsiya:** Biz quyida keltiradiga maqolamizda nemis tilini xorijiy til sifatida A1 (boshlanch'ich) darajada o'rgatishda yozuv ko'nikmasini shakillantirishga yordam beradigan usullar va yangi metodologiyalar bilan tanishtirib o'tamiz. Shu bilan birga nemis tilini o'rghanishning turi xil katta-kichik muammolari va yechimi haqida so'z boradi. Bugungi rivojlanib borayotgan davlatimiz O'zbekistondagi chet tili sifatida nemiz tilining o'qitilish ahamiyati ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** nemis tili, lug'at, metodika, ta'lim, pedtexnologiyalar, imkoniyatlar va vazifalar, daraja, ko'nikma.

## **KIRISH**

Bugungi kunda jamiyatda chet tillarini chuqr o'rgatishga katta o'rinn berilgan, bu ham qo'shimcha mehnat va bilimni talab qiladi. Chet tili dunyoqarashni boyitadi, o'rganilayotgan til mamlakatlari hayoti bilan tanishtiradi.

Nemis – rivojlangan davlatlar orasida eng mashhur tillardan biri bo'lib, Yevropa Ittifoqida eng keng tarqalgan ona tildir. Rasmiylarning bergen ma'lumotlariga ko'ra 95 millionga yaqin kishi nemis tilini birinchi til deb biladi.

Albatta, o'quvchilarning til mahoratingizni aniq o'lchash imkonsizdir va har bir baholash tizimida B1 darajasi va a'lo daraja o'rtasida katta bo'shliqlar bo'lishi mumkin.

**Mutlaq boshlanch'ich (A1) daraja avvalo qanday bilimlar bilan beholanadi aytib o'tamiz.**

Nemiz tili bo'yicha (A1) bu siz boshlanch'ich bilimlar manbani degan quyida keltirilganlarni anglatadi:

- Kundalik tanish iboralarni va aniq turdag'i ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan juda oddiy iboralarni tushunishi va ishlatishi mumkin.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

- U o'zini va boshqalarni tanishtirishi va shaxsiy tafsilotlari, masalan, qaerda yashashi, tanigan odamlari va bor narsalari haqida savol berishi va javob berishi mumkin.
- Agar suhbatdoshingiz sekin va aniq gaplashsa va yordam berishga tayyor bo'lsa, sodda tarzda o'zaro aloqa qilishi mumkin.

O'zbekiston mustaqil deb e'lon qilinib, 2012-yil 10-dekabrdan imzo chekilgan 1875-sonli PF gacha bir maromda umumiy o'rta ta'lim maktablarida chet tili sifatida o'rganilgan chet tillaridan biri bu nemiz tilidir. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarida asosan 3 ta chet tili o'rgatiladi. Bular ingliz, nemis va fransuz tillari hisoblanadi.

Shu ma'noda nemis tilni amaliy maqsadlar uchun o'rganish va o'rgatishdan kuzatilayotgan maqsadlar turlicha talqin etilsada, bular ichida bo'lajak mutaxassislarni muloqotga tayyorlash, yozuv ko'nikmasini shakillantirish va shu bilan bir qadortda boshqa ko'nikmalarni ham rivojlantirishning samaradorligi ya'ni chet til ta'limi va tahsilidan ko'zlanayotgan maqsad kommunikativ xususiyatda ekani oydinlashadi. Nemis tili ta'limidan kuzatilgan maqsadlar mazkur xususiyatga ega ekani birinchi o'rinda, shubhasiz chet tilda yozish ko'nikmasini shakillantirish amaliyotini qo'yadi-ki, bu amaliyot tildan amalda foydalanish mashqlarisiz mumkin emas. Bu amaliyot o'z-o'zidan ayonki o'qish, yozish, eshitish, gapirish, ya'ni muloqot yo'sinidagi xodisadir. Shu boisdan nemis tili ta'limi va taxsilining tashkil etilishi va lingvopsixologik va lingvometodik xususiyatlarini hisobga olingani bilan samaradorlikka daxldor bo'ladi.

## **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Dars davomida, o'quvchilar faqat o'qituvchi nazorati ostida bo'lsagina, nemis tilida so'zlash va so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish, to'g'ri yozish uchun harakat qiladilar va bu o'qituvchi tomonidan tekshirilib, nazorat qilinganda samaradorligi yaxshi bo'ladi. Demak o'qituvchi faoliyatini mukammalashtirish uchun ham bizga yangi-yangi metodlar, usullar kerak bo'ladi.

Nemis tilidan boshlang'ich (A1) darajasi - bu tilni o'rganishning eng boshlang'ich bosqichi bo'lib, bu bosqichda o'quvchilar oddiy so'zlar va iboralar

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

yordamida o'z fikrlarini ifoda eta olishlari kerak.

Boshlang'ich A1 darajasida yozuv ko'nikmasini shakllantirishning asosiy maqsadlarini quyida keltirib o'tamiz:

- O'quvchilarni oddiy so'zlar va iboralar yordamida o'z ismini, yoshini, millatini, kasbini va boshqa shaxsiy ma'lumotlarini yoza olish ko'nikmasini shakillantirish.
- O'quvchilarni oddiy savollarga javob yoza olishga o'rgatish va javoblarni og'zaki va yozma variantlarini teng shakillantira olish .
- O'quvchilarni oddiy xatlar va elektron pochta xabarlarini yoza olishga o'rgatish (masalan, do'stga yoki oila a'zosiga).
- (A1) darajada o'quvchilarni kundalik hayotda uchraydigan oddiy matnlarni (masalan, e'lolar, menyular, yo'l ko'rsatkichlari) tushunishga va ularga javob yoza olishga, o'zlari uchun muhim bo'lgan savollarni bemalol yozma va og'zaki so'ray olishga o'rgatish.

Grammatik qoidalarga bog'lanib qolish, til bilan bog'liq to'siqlar kabi muammolar o'quvchilarning til o'zlashtirishiga bo'lgan qiziqishini so'ndirib, jiddiy yondashmaslikka sabab bo'ladi. O'quvchilar har doim ham mashg'ulotda o'rgangan qoidalariга rioya qilmaydilar va rioya qila olmaydilar.

O'z ustida mustaqil ishslash, muammolarni mustaqil hal qilish va izlanish har qanday fanni yaxshi o'zlashtirishga xizmat qiladi. Bu esa o'quvchining o'z ustida ishslash imkoniyatini kamaytiradi. Chet tillarini o'rgatish metodikasi bo'yicha dunyo olimlari ko'p tadqiqotlar olib borishgan, ya'ni bular Francois Gouin, M.Berlis, M.V.Lyaxovitskiy, G.Rogova, V.Setlin kabi olimlar. Ilmiy tadqiqotlarda chet til grammatikasini (V. S. Setlin) va leksikasini o'rgatish (V. A. Buxbinder), chet tilda o'qish va yozish ko'nikmasini o'rgatish (S. K. Folomkina), chet til o'rgatishda tovush yozuvidan foydalanish (M. V. Lyaxovitskiy) bo'yicha maxsus prinsiplar mukammal ishlab berilgan.

Nemis tilini o'rgatishga oid bo'lgan ilmiy tadqiqotning umumiyligi (asosiy) metodlari ichida salmoqli o'rinni tutadigani tajribasinovdir. Tadqiqot metodikasi sohasida barakali ilmiy natijalarga erishgan prof. M.V Lyaxovitskiy tajriba-sinov

haqida shunday fikr yuritgan: tekshirilayotgan metodik hodisa turli ko'rinishlarda ilmiy asoslanib, tajribaga qo'yilganda, tajriba-sinov hosil bo'ladi. A1darajadagi yozuv ko'nikmasini shakillantirishda ham leksik birliklar yangi so'zlar sinov guruhlarda tarjimasiz, nazorat sinflarda tarjima qilib o'rgatiladi. Ko'rinish turibdiki, leksik material bitta, o'rganish metodikasi ikkita. Tajriba sinov natijasi tarjimaning yaroqli yoki yaroqsizligini isbotlab beradi.

Nemis tili sintaksisini o'zbek auditoriyasida o'rganish bo'yicha ham ibratlari tajriba-sinov o'tkazilgan. Bir nechta ilmiy ishlarda chet tilni o'rgatish sohasidagi bajarilgan tajribasinovalar ibratomuz namunalar darajasiga ko'tarilgan. Tajriba -sinov mavzusida metodistlardan Eduart Abramovich Shtulman chuqur ilmiy tadqiqot olib borgan. ( E. A. Shtulman).

### **TAHLIL VA NATIJALAR**

XIX asrning oxiriga kelib Germaniya yangi filologlari o'rtasida zamonaviy tillarni o'qitish qadimiy tillarni o'qitishga qaraganda o'zgacha maqsadlarni ko'zlashi va boshqa metodlar asosida o'qitilishi kerak emasmi, degan masala jiddiy ko'tarildi.

Til grammatikasini hech qachon bir vaqtlar grammatiklar yaratgan va g'azal va sher qonuniyatlari kabi o'zgartirib bo'lmaydigan, qotib qolgan qoidalarga bo'ysindirish mumkin emas, aksincha, grammatika ham jamiyatda bo'lgani kabi, ya'ni nima kecha dolzarb bo'lsa, bugun unitiladi, nima bugun to'g'ri bo'lsa, ertaga noto'g'ri bo'lishi ham mumkin degan qoidaga amal qiladi.

Nemis tilidan A(1) darajasida yozuv ko'nikmasini shakllantirish uchun turli xil usullar va mashqlar mavjud:

- Alifboni o'rganish:
  - Har bir harfni yozishni mashq qilish.
  - Katta va kichik harflarni farqlashni o'rganish.
  - Harflarni so'zlarda to'g'ri joylashtirishni mashq qilish.
- Nemis tilida A(1) darajaga oid bo'lgan so'zlarni yodlab talaffuzuni o'rganish va yozish ko'nikmalarini teng rivojlantirish uchun muhim bo'lgan etaplar:
  - Eng ko'p ishlatiladigan so'zlarni (salomlashish, xayrlashish, ismlar, sonlar, ranglar, kunlar, oylar, oila a'zolari, kasblar va h.k.) o'rganish.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

- Har bir so'zni to'g'ri yozishni mashq qilish.
- So'zlarni rasmlar bilan bog'lash.
- A(1) daraja uchun yana bir muhim etap bu gap tuzishni o'rganish:
  - Eng oddiy gap tuzilishini (ega + kesim + to'ldiruvchi) o'rganish.
  - O'rganilgan so'zlar yordamida oddiy gaplar tuzishni mashq qilish.
  - Savol gaplar va inkor gaplarni tuzishni o'rganish.
- Yozma mashqlar:
  - Ko'chirish (Abschreiben): Oddiy matnlarni ko'chirish orqali yozuv texnikasini yaxshilash.
  - Diktant (Diktat): O'qituvchi tomonidan o'qilgan so'zlar va gaplarni yozish orqali eshitish va yozish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Har bir o'quvchi nemis tilini o'ziga xos tarzda o'rganadi. Bu borada quyidagilar muhim rol o'ynaydi, ya'ni o'rganuvchining yoshi predmetga qiziqishi o'quv materialining tuzilishi shart-sharoiti ilmiy poydevor o'qituvchining bilm shuningdek, har bir shaxsning o'ziga yarasha qobiliyati bor, bu ham albatta chet tili o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Nemis tilini o'rgatishda albatta bolaning qiziqishidan va fikridan kelib chiqqan holda material tanlash kerak. O'rganuvchiga ona tilisidan nemis tiliga tarjima uchun mo'ljallangan qiziqarli va kichik hajmli matnlar berish, rasmlar orqali vizual(ya'ni ko'rib tasavvur qilish) orqali, eshtish va gapirish orqali oson o'rgatish, yana lug'atlar yozib yodlash orqali ham o'quvchilar yozish ko'nimasini yaxshi rivojlanadi va u orqali gaplar tuzib eslab qolish mumkin. Bilamizki nemi tilini 4 ta bo'lim orqali o'rganamiz, ya'ni :

- ✓ O'qish
- ✓ Eshtish
- ✓ Yozish
- ✓ Gapirish.

## **MUHOKAMALAR**

G'arbiy Yevropada, shuningdek, ilmiy va texnikaviy til sifatida o'z o'rnini topdi. XX-asrda nemis tili dunyoda yana keng tarqaldi, ayniqsa, iqtisodiy, ilmiy va madaniy jihatdan Germaniya va Avstriyaning kuchli ta'siri tufayli. Hozirgi kunda

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

nemis tili Yevropa Ittifoqining rasmiy tillaridan biri va jahondagi eng ko‘p o‘rganiladigan tillardan biridir. Nemis tili, Germaniya va boshqa Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgantil bo‘lib, Germaniya tillar oilasiga mansub. Bu tilga qardosh bo‘lgan tillar German tillar oilasining boshqa a’zolari hisoblanadi.

Nemis tilidan boshlang’ich A(1) darajadagi yozuv ko’nikmasini shakillantirish deganda o’quvchilarni kundalik hayotda nemis tilida muloqot qila olishga o’rgatish tushuniladi.

A(1) darajadagi yozuv mashqlari o’quvchilarning real hayotiy ehtiyojlariga javob berishi kerak (masalan, xatlar yozish, ma'lumotnomalar to’ldirish, SMS yozish).

Yozuv ko’nikmasini shakllantirish oddiy mashqlardan murakkabroq mashqlarga o’tish orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.

Yozuv ko’nikmasini boshqa til ko’nikmalarini (tinglash, gapirish, o’qish) bilan integratsiyalash holda shakillantirishga intilish asosiy metodologiyalardan biri hisoblanadi.

A(1) darajada bilimlarni berishda o’qituvchi o’quvchilarning individual xususiyatlarini, qiziqishlarini va o’rganish tezligini hisobga olish juda muhim hisoblnadi.

**A(1) darajadagi bilimlardan to murakkab darajagacha bo’lgan oraliqdagi nemis tilini o’rganish metodologiyasi:** Nemis tilini samarali o’rganish uchun bir nechta metodlar mavjud:

**Grammatikaga asoslangan o’qitish:** Bu metodda tilning grammatik tuzilmalari chuqur o’rganiladi. Bunda yozma va og‘zaki mashqlar orqali tilda to‘g‘ri tuzilgan jumlalar yaratishga o’rgatiladi.

**Kommunikativ metod:** Bu metodda til o’rgatishda asosiy e’tibor tilni amaliyotda qo’llashga qaratiladi. O’quvchilar kundalik suhbatlarda va turli vaziyatlarda nemis tilida muloqot qilishga o’rgatiladi.

**Interaktiv texnologiyalar:** Til o’rganishda mobil ilovalar va onlayn platformalar yordamidayangi lug‘at va grammatikani o’rganish samarali bo‘lishi mumkin.

Nemis tilini o’rganish nafaqat tilni o’rganish, balki o’sha tilga xos

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

madaniyatni tushunishdir. Til o‘rganishda madaniyatni o‘rganish ham muhim.

Nemis tilining boy adabiy merosi mavjud. Friedrich Schiller, Johann Wolfgang von Goethe va Franz Kafka kabi yozuvchilarni o‘rganish nemis tilining estetik jihatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Nemis tili va madaniyati haqida ko‘plab filmlar va san‘at asarlari mavjud, ular tilni o‘rganishni qiziqarli va mazmunli qiladi.

### **Nemis tilini o‘rganishdagi qiyinchiliklar va ularni yengish:**

Nemis tilining grammatik tizimi, ayniqsa artikllar, so‘zlar yozilishidagi o‘zgarishlar o‘rganuvchilar uchun murakkab bo‘lishi mumkin.

**Lug‘at:** Nemis tilidagi uzun so‘zlar va murakkab iboralar yangi o‘rganuvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shu sababdan so‘zlarni yozib yodlash ham to‘g‘ri ham maqsadli bo‘ladi deb hisoblaymiz.

### **XULOSA**

Bugungu yuksalib, jahon hamjamiyatiga qo‘silib borayotgan davrda har bir shaxs kamida ikkita chet tilini bilishi zamon talabiga to’liq aylanib bo’ldi. Chunki hozirgi innovatsiyalashayotgan davrda chet tilini bilmay hech narsaga erishib bo’lmaydi. Chet tilini o‘rganish siz qanchalik katta bo’lsangiz, shunchalik qiyin bo‘lishi mumkin. Shuning uchun chet tillarini maktab paytidayoq A(1) darajada egallah lozim .

Albatta chet tilini bilgan holda O’zbekistonimizni ham chet davlatlarga tanitamiz. Chet tilini bilish orqali sayohat qilish, o‘rganish, muloqot qilish, kasalliklardan saqlanish, muammolarni hal qilish ko’nikmalari, miya tuzilishini o‘zgartirish va diqqatni nazorat qilish kabi imkoniyatlarga ega bo’lasiz. Ta’lim shunday jarayonki, uning natijasi 1-2 yilda emas, balki bir necha yillarda, 10-12 yilda ko’rinadi. Ota-bobolarimizning “Til bilgan – el biladi”, “Yoshlikda olgan bilim-toshga o‘yilgan naqsh” degan gaplari bejizga emas.

Bugungi kunda nemiz tilini ham boshlang’ich A(1) darajada o‘rganish ham rivojlangan Germanya davlatida o‘qish, ishslash, meditsina , turism kabi rivojlangan sohalardan bemalol foydalanish imkoniyatini bermoqda desak mubolag’a bulmaydi. Shunday ekan nemis tili yozuv ko’nikmasini rivojlantirish, til o‘rgatishda faqat

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

grammatikani o'rganishdan tashqari, tilning barcha aspektlarini (so'zlashuv, tinglash, yozish va o'qish) kompleks tarzda rivojlantirishga qaratilgan. Har bir o'quvchining ehtiyojiga mos yondashuvni ta'minlash, interaktiv va kommunikativ metodlardan foydalanish orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Shuningdek, madaniy kontekstni o'z ichiga olgan darslar o'quvchilarga tilni to'liq tushunishga yordam beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Абдуллаева, Ш. А. (2019). Педагогик диагностика. Тошкент: Университет, 310.
2. Gerhard Neuner, Hans Hunfeld. “Chet tili o’qitish metodlari”. Namangan 2005.
3. Jamol Jalolov. “Chet til o’qitish metodikasi”. O’qituvchi, Toshkent 2012.
4. Jumaevich, K. K., & Abdullajonovna, A. G. (2021). Technology of Cooperation in the Formation of Spiritual and Moral Education of Young People in Society and Its Qualimetry. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 7062-7068.
5. Sadikova, S. (2020). UNIVERSITY STUDENTS TRAINING SYSTEM FOR PEDAGOGICAL ACTIVITIES. InterConf.
6. <https://uz.eferrit.com/qaysi-davlatlar-nemis-tilida-gaplashadi/>
7. Chet til o’qitish metodikasi: chet tillar oliv o‘quv yurtlari (fakultetlari) talabalari uchundarslik / J.J. Jalolov. — Toshkent: O ‘qituvchi, 2012
8. Bekmuratova U. B. “chet tilini o“qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” mavzusida konspekt. Toshkent - 2012
9. Shomansurov Shorasul ”Maktabgacha ta’lim jarayonida xorijiy tillarni o’qitishning zamonaviy metodikasi –Xitoy tajribasida” 2018y.(70-bet)
10. Shayxislomov, N. (2020). Ijtimoiy lingvistika muammolari: status tili. O'zbekiston dafanva ta'limda (taqdimot)
11. Shavkat Karimov "Nemis adabiyoti tarixi" O'zbekiston davlat jahontillari un-ti, T.:MUMTOZ SO'Z, 2010. (2-bet)